

QADIMGI RIM HUQUQ TIZIMI: SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY HUQUQ TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI”

Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix va mamlakatlar yo‘nalishi bo‘yicha 2-kurs talabasi

THE LEGAL SYSTEM OF ANCIENT ROME: FORMATION AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LAW

Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi

*2nd year student of the History and Countries Studies Department
National University of Uzbekistan*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qadimgi Rim huquq tizimining shakllanish jarayoni, uning asosiy bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Rim huquqining asosiy manbalari, xususan, XII jadvalli qonunlar, pretor huquqi hamda Yustinian kodeksining yaratilishi va tizimlashtirilishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot davomida Rim huquqining asosiy tamoyillari, jumladan, mulk huquqi, shartnoma erkinligi, shaxs daxlsizligi va qonun ustuvorligi kabi prinsiplar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada Rim huquqining Yevropa fuqarolik huquqi va zamonaviy huquq tizimlari shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Rim huquqi jahon huquqiy tafakkurining muhim poydevori ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Rim, Rim huquqi, XII jadvalli qonunlar, Yustinian kodeksi, fuqarolik huquqi, huquqiy tamoyillar, huquq tizimi, yurisprudensiya.

Abstract : This article examines the process of formation and development of the Ancient Roman legal system. It analyzes the main stages of its evolution, the primary sources of Roman law, including the Law of the Twelve Tables, praetorian law, and the codification of Justinian (*Corpus Juris Civilis*). The fundamental principles of Roman law, such as property rights, freedom of contract, personal inviolability, and the rule of law, are discussed from a scientific perspective. The article also highlights the influence of Roman law on the formation of European civil law and modern legal systems. The research demonstrates that Roman law serves as one of the essential foundations of contemporary legal thought and jurisprudence.

Keywords: Ancient Rome, Roman law, Twelve Tables, Justinian Code, civil law, legal principles, legal system, jurisprudence.

Аннотация (Russian): В данной статье рассматривается процесс формирования и развития правовой системы Древнего Рима. Анализируются основные этапы эволюции римского права, его источники, включая Закон XII таблиц, преторское право и кодификацию Юстиниана (*Corpus Juris Civilis*). Особое внимание уделяется основным принципам римского права, таким как право собственности, свобода договора, неприкосновенность личности и верховенство закона. В работе также раскрывается

влияние римского права на формирование европейской системы гражданского права и современных правовых систем. Результаты исследования подтверждают, что римское право является важнейшей основой мировой правовой мысли.

Ключевые слова: Древний Рим, римское право, Закон XII таблиц, Кодекс Юстиниана, гражданское право, правовые принципы, правовая система, юриспруденция.

Qadimgi Rim – qadimgi davlat. Rivoyatga ko‘ra, Rim shahriga aka-uka Romul va Rem tomonidan miloddan avvalgi 754–753 yilda asos solingan. Rivoyatlarda VIII-VI asrlarda hukmronlik qilgan 7 podshoh qayd etilgan. So‘nggi podshoh Tarkviniy Takabbur quvilgach, respublika tuzumi o‘rnatilgan (miloddan avvalgi 510/509 yil). Miloddan avvalgi III asr o‘rtalariga kelib, butun Italiya hududini tobe etgan Rim yirik davlatga aylangan. U O‘rta dengiz havzasida gegemon bo‘lishga intilgan, bu Rimni Karfagen bilan to‘qnashuviga sabab bo‘lgan. Puni urushidan so‘ng miloddan avvalgi 146-yil Karfagen ustidan g‘alaba qozongan Rim, O‘rta dengiz havzasining eng yirik davlatiga aylangan, imperiyani Sharqiy va G‘arbiy qismlarga bo‘linib ketishiga (395) olib kelgan. 476-yil german yollanma askarlari sardori Odoakr G‘arbiy Rim imperiyasining so‘nggi imperatori Romul Avgustulni taxtdan ag‘dargan. Sharqiy Rim imperiyasi Vizantiya nomi bilan yana 1000-yilga yaqin mavjud bo‘lgan.³¹

Rimda dastlabki monarxiya (miloddan avvalgi 753-509- yillar), keyin esa respublika (miloddan avvalgi 509-27-yillar) shakllangan. Respublikada hokimiyat senatorlar va konsullarga tegishli bo‘lib, xalqqa nisbatan kengroq ishtirok imkoniyatlari berilgan. Rim imperiyasi davrida (miloddan avvalgi 27-476-yillar) imperatorlar butun mamlakatni boshqarib, keng hududlarda barqarorlikni saqlab qolgan. Imperatorlar kuchli markazlashtirilgan boshqaruvni amalga oshirishgan. Demak, Rim respublikasi boshqaruvi davri va monarxiya boshqaruvi davri Mutlaq bir-biridan farq qiladi. Respublika boshqaruvi shaklida bo‘la turib qullikning mavjud bo‘lishi va monarxiya boshqaruvi davriga kelib uning yanada avj olishi inson huquqlarini yetarlicha ta‘minlanmagan degan xulosaga olib kelishi mumkin. Ammo, qator agrar va xo‘jalik islohotlari ishlab chiqarishni rivojlanishiga turtki va davlat rivojlanishi uchun imkoniyat bo‘ladi.

Shu narsa tasodif emaski, Rim jamiyatida qadimdan qonunlar muqaddas sanalgan, qadimgi dunyo uchun ancha takomillashgan huquqiy tizim ishlab chiqilgan. Bu huquqiy tizim yaxlit va keng qamrovli xarakter kasb etgan. Rim huquqi tarixda birinchi marta huquqiy bilimlarni aniq tizimga solingan, juda puxta ishlab chiqilgan namunasi sifatida maydonga chiqqan. Klassik rim huquqi - antik va butun qadimgi dunyo huquqi tarixidagi eng yuksak cho‘qqidir. Antik dunyoning eng buyuk yutuqlaridan biri - rim xususiy huquqidir.

Rim huquqi Rim quldorlik davlatida alohida shaxslar, fuqarolarning mulkiy munosabatlarini va mulk bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlarni, shuningdek, boshqa shaxslarga o‘tkazib bo‘lmaydigan shaxsiy nomulkiy hamda oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solgan. Qadimgi Rim jamiyatida dastlab huquq sohalaridan biri sifatida fuqarolik huquqi fundamental huquq sohasi sifatida shakllandi. Dastlab barcha harakatlar, munosabatlar, urf-odat normalari, ajdodlardan qolgan marosimlar va diniy tartiblar

³¹ Saidova L.B-Qadimgi Rim madaniyati -maqola

orqali boshqarilgan. Jamiyat rivojlanishi bilan bu normalar asta-sekin yozma shakldagi huquqiy munosabatlarga o'ta boshladi.

Shu asosda shakllangan yozma huquqiy munosabatlar dastlab fuqarolik huquqiy munosabatlarini vujudga keltirdi va ularning amal qilish doirasini kengaytirdi. Haqiqatda, keyinchalik paydo bo'lgan ko'plab harakatlar, hatto jinoyat tarkibi bilan bog'liq harakatlar ham dastlab fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solingan bo'lib, bu fuqarolik huquqining rivojlanishi uchun muhim asos yaratgan.³²

Qadimgi Rimning mashhur tarixchisi Tit Liviy (milodiy I asr) Rimda mavjud bo'lgan urf-odat normalaridan kelib chiqqan yozma qonun – XII jadvallar qonunini ham ommaviy, ham xususiy huquqning manbai sifatida baholagan.

Haqiqatan ham, XII jadvallar qonunlari miloddan avvalgi 451–450-yillarda vujudga kelib, mavjud bo'lgan og'zaki urf-odat normalarini yozma shaklga keltirgan va ularni yagona qonun tizimiga birlashtirgan. Mazkur qonun Rim fuqarolik huquqi rivojlanishining dastlabki asoslaridan biri hisoblanadi.³³ XII jadvallar qonunlari yozma shaklda bo'lib, dunyoviy xususiyatga ega bo'lgan. Ushbu qonunlar o'n ikkita mis lavhaga o'yib yozilib, Rim siyosiy hayotining markazi hisoblangan forumga hammaning ko'rishi uchun osib qo'yilgan. Mazkur qonunlarni bilish barcha fuqarolar uchun majburiy bo'lgan va uning qabul qilinishi bilan Rim fuqarolarini dunyoviy huquqiy jihatdan tarbiyalash zarurati yuzaga kelgan.

XII jadvallar qonunlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning mazmuni XV–XVI asrlarda Rim mualliflarining asarlaridagi parchalar asosida qayta tiklangan. Hozirgi kungacha ham XII jadvallar qonunlarining matni to'liq saqlanmagan bo'lib, ayrim joylari noaniq holatda qolgan.

Rim davlatida asosan ikki xil huquq tizimi – ommaviy huquq (*jus publicum*) va xususiy huquq (*jus civile*) tizimi mavjud bo'lgan. Davlat qonuni o'z fuqarolariga nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik davlat hududi kengayishi, savdo munosabatlarining keskin ortishi va chet el shaxslarining (*peregrinlar*) davlat hududiga kirganlaridan so'ng ularga nisbatan qonun va qoidalarning yo'qligi, mavjud qonunlarni magistratlar ularga nisbatan qo'llay olmasligi natijasida uchinchi bir huquq tizimi – xalqlar huquqi (*jus gentium*) vujudga kelgan. Bunda ommaviy huquq asosan davlat manfaatlarini ifodalovchi va u bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solgan bo'lsa, xususiy huquq alohida shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga keltirgan. Xalqlar huquqi esa rimliklar va rimlik bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan tatbiq qilingan. Rim huquqini “yuridik iboralar laboratoriyasi” deb ham atashgan. Bu ibora, shuningdek, yuridik texnikani o'rganish yuristlarga qonunlarni qabul qilish, ularni takomillashtirish hamda puxta, qisqa, aniq va tushunarli ifodalangan huquqiy matnlarni yaratishda katta yordam beradi.

Huquqshunos olim H. Muhammedovning fikriga ko'ra, Rim huquqi tarixi quyidagi davrlarga bo'linishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Eng qadimgi davr (miloddan avvalgi VI asr – III asr o'rtalari). Bu davrda Rim huquqining asosiy institutlari polis tizimiga xos bo'lib, yopiq xarakterga ega edi. Huquq qadimiy, rivojlanmagan va diniy xarakterda bo'lgan.

³² Тоғшлдіев.В -Рим ҳуқуқи -Т.: «Янги аср авлоди». 2013

³³ Isxakov S.Rim huquqi :IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/S.Isxakov,V.Topildiyev,A.Raxmonov,-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. 224-b

2. Klassik davr (miloddan avvalgi III asr oʻrtalari – milodiy III asr oxiri). Ushbu davrda Rim huquqi patriarxal va diniy qoldiqlardan xalos boʻlib, dunyoviy yuridik tizimga aylana boshladi.

3. Postklassik yoki yangi klassik davr (IV–VI asrlar). Bu davrda quldorlik jamiyati va davlat tuzumining yemirilishi bilan Rim huquqining rivojlanishi sekinlashdi va umumiy iqtisodiy hamda siyosiy inqiroz belgilarini oʻzida aks ettirdi. Mazkur davrda Rim huquqidagi oʻzgarishlar asosan tizimlashtirish hamda shakllanayotgan feodal munosabatlarga moslashish jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan.³⁴

Huquqshunos olimi Z. Shomuhamedovanning fikriga koʻra, zamonaviy romanistika ilmi Rim huquqi tarixini besh davrga boʻladi:³⁵

1. Qadimgi (arxaik) davr – miloddan avvalgi 753–367-yillar;
2. Klassik davrdan oldingi davr – miloddan avvalgi 367–17-yillar;
3. Klassik davr – miloddan avvalgi 17-yildan milodiy 235-yilgacha;
4. Klassik davrdan keyingi davr – milodiy IV–V asrlar;
5. Yustinian davri – 527–565-yillar.

Qadimgi Rim quldorlik davlati huquqshunoslari “huquq ijodkorlari” deb atalgan. Ularning oʻziga xos xususiyati qonunlarni har tomonlama talqin qilish va huquq kafolatlarini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratishida yaqqol namoyon boʻlgan. Rim davlatida huquqning eng qadimgi manbai (*mores maiorum*) — huquqiy odatlar boʻlgan. Rim tarixiy anʼanalariga koʻra, huquqning yana bir manbai Rim podsholarining qonunlari (*leges regiae*) hisoblangan.

Rim davlatida imperiya oʻrnatilgandan keyin imperatorlarning qonunlari (konstitutsiyalari) xalq majlislari tomonidan hokimiyat vakolatining natijasi sifatida qaralgan. Shu asosda Rim xalqi oʻzining qonun chiqarish vakolatini imperatorlarga oʻtkazgan. Mazkur davrga kelib, imperatorlarning qonunlari huquqning eng muhim manbalaridan biriga aylangan.

Qadimgi Rim quldorlik davlatida yurisprudensiya rivojlanishi eng yuqori choʻqqiga chiqdi. Bu davrda xususiy mulk huquqi hamda Rim xususiy huquqi mukammallashdi va yanada takomillashdi.

Mazkur davr yuristlari huquqiy nazariya va amaliyot rivojiga katta hissa qoʻshganlar. II asrni “oltin asr” deb atashadi, chunki aynan II asr jahon tarixida mashhur boʻlgan yuristlar tomonidan yaratilgan boy huquqiy meros va yodgorliklar bilan iz qoldirgan davr hisoblanadi.

Rim huquqining rivojlanishida turli huquq maktablari va ularning asoschilari huquqshunoslarning xizmatlari katta edi. Huquqshunoslar qonunni boshqarishda qatnashmadilar, aksincha qonunni talqin qilish va rasmiy fikrlarni shakllantirishga eʼtibor qaratdilar. Bu Rim huquqining klassik davri deb ataladigan milodiy dastlabki ikki yarim asr davomida Rim huquqini choʻqqisiga koʻtargan buyuk huquqshunoslar ilmiy asarlari edi. Avval boshdan ikki huquq maktabi – Sabinyanlar va Prokulyanlar huquq maktablari rivoj topdi. Bunga sabab sifatida imperator Avgust va uning vorislari tomonidan huquqshunoslarga katta imtiyozlar berilishi va ularning fikrlari qonun manbai deb hisoblanganligini aytishimiz mumkin. Pomponiyning keltirishicha, Sabin huquqiy koʻrsatmalar berish orqali birinchi huquq maktabini yaratgan. Keyinchalik yana boshqa huquq maktablari ham tashkil etila boshlandi.

³⁴ H. Muhammedov. “Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi”. – Toshkent: “Adolat”, 1999. – 290–291-betlar.

³⁵ Shomuhamedova, Z. “Rim xususiy huquqi”. – Toshkent: “Consauditinform”, 2002. – 18-bet.

Ularga yorqin misol sifatida Ulpian rahbarlik qilgan Berit huquq maktabini aytishimiz mumkin. Ushbu davrlarda huquqshunoslikning talab qilinadigan kursi kasbiy ko'nikma bo'yicha 3 yil va qo'shimcha 2 yillik xususiy o'qishdan iborat bo'lgan.³⁶

Qadimgi Rim huquqining asosiy manbasi hisoblangan Yustinian kodeksi bugungi kundagi mavjud huquqiy tizimlarning asosini tashkil etdi. G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan keyin asrlar davomida u unutilgan bo'lsa-da, Rim huquqi XI asrda Italiyaning Boloniya universiteti tadqiq etila boshlangan va Yevropaga tarqalib jonlana boshlangan. Yevropaliklar tomonidan mavjud saqlangan qo'lyozmalar o'rganilgan va shu sababdan G'arb an'analarida Rim huquqi asosiy manba bo'lgan. Menimcha, "Yevropaning o'ziga xosligi uchta ustunga asoslangan: nasroniylilik, Aristotel falsafasi va Rim huquqi", degan fikrlar bejizga ilgari surilmagan. XVI asrga kelib Rim qonuni butun Yevropada amal qildi. Umuman olganda, o'sha davrda Yevropa mamlakatlari tomonidan qo'llanilgan qoidalar Yustinian davridagi Rim qonuni bilan bir xil edi. Shunga qaramay, rivojlangan qonun Yevropaning aksariyat mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan va shuning uchun u Ius Kommunasi (umumiy qonun) deb nomlangan. Rim huquqida mavjud atamalar bugungi kunda ham o'z mavqeyini yo'qotmagan. Bunga sabab sifatida Rim huquqining o'ziga xosligi tilning aniqligiga e'tibor berilishida edi deyishimiz mumkin. Lotin so'zlaridan foydalanish qadimgi rimliklar G'arb Adliya tizimiga ta'sir qilgan yagona usul emas. Rim Adliya tizimi jazolashda o'ta qattiq bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda sud jarayonlari qanday sodir bo'lishining taxminiy sxemasi bo'lib xizmat qilgan. Rim huquqi bugungi kunda amal qilayotgan bir qancha davlatlarning xususiy huquq tizimlarini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli Rim huquqi bu huquqiy tizimlarning tarixiy-huquqiy manbalaridan biri hisoblanadi. Haqiqatdan ham, bugun GFR, Fransiya, Italiya, Shvesariya kabi mamlakatlarda amalda bo'lgan xususiy huquq me'yorlarining muhim bir qismi Rim huquqidan kelmoqda. Bu holat tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sabablarga bog'liqdir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi Rim huquq tizimi dunyo huquqiy tizimlarining vujudga kelishiga sababchi bo'lgan va ularni o'zining qonuniyatlari ila boyitgan. Rim huquqini bugungi kunda o'tgan asrlarda yashagan tobu kiyib olgan "XXI asr huquqshunosi" desak mubolag'a bo'lmaydi. U huquqshunoslarni har tomonlama mukammal bilim olishlarini istovchi va bu yo'lda ilk saboqlarni beruvchi ustozdir. Agarda Rim huquqi bugungi kundagi huquqiy indekslar bilan baholanadigan bo'lsa, albatta yuqori o'rinni olishi shubhasiz. Rim huquqining ahamiyati shundaki, u qiyinchilik davrlarda ham aholi va davlatning tizimli asosda faoliyat yuritishini ta'minlagan, fuqarolar va jamiyatni himoya qiluvchi kuch sifatida maydonga kelgan. Qadimgi Rim zamonaviy dunyoga nafaqat huquq tizimi bilan katta ta'sir ko'rsatgan, balki biz uni san'atimiz, arxitekturamiz, texnologiyamiz, adabiyotimiz, tilimiz va qonunimizda ko'rishimiz mumkin. Ko'priklar va stadionlardan tortib kitoblarga va biz har kuni eshitadigan so'zlarga qadar qadimgi rimliklar bizning olamimizda iz qoldirgan. Rim huquqi o'zining keng ahamiyatli ekanligi sababidan ham bugungi kunda huquqshunoslik oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida o'rganib kelinadi. Chunki hayotimizning ko'p jabhalarida ayni unga murojaat qilamiz. Sababi esa ushbu jabhalarning ibtidosi Qadimgi Rimda boshlangan.

³⁶ Saidov.Sh.M-Rim huquqining tarixiy ahamiyati -maqola

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H. Muhammedov. “Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi”. – Toshkent: -- Adolat”, 1999. – 290–291-betlar.
2. Shomuhamedova.Z “Rim xususiy huquqi”. – Toshkent: “Consauditinform”, 2002. – 18-bet.
3. Топилдиев.В -Рим хукуки -Т.: «Янги аср авлоди». 2013
4. Isxakov S.Rim huquqi :IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/S.Isxakov,V,Topildiyev,A.Raxmonov,-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. 224-b
5. Saidov.Sh.M-Rim huqining tarixiy ahamiyati -maqola
6. Qo'ldoshev M.M Rim huquqi: vujudga kelishi,rivojlanishi va manbalari./o'quv qo'llanma ,Samarqand:.2010
7. Muhammadov.H, Xamidova.M Davlat va huquq tarixi -Toshkent :.2025